

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
rektori
I. Madjidov
“07” 2026-yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN SOTSIOLOGIYA FANIDAN IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Toshkent - 2026

Tuzuvchilar:

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya" kafedrası mudiri, dotsent, sotsiologiya fanlari boyicha (PhD) E.Zaitov

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya" kafedrası kafedrası katta o'qituvchisi, sotsiologiya fanlari boyicha (PhD) M.Ibragimov

Taqrizchilar:

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi "Din psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrası professori, sotsiologiya fanlari doktori Sh.Sodiqova

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Sotsiologiya" kafedrası professori, sotsiologiya fanlari doktori A.Xolbekov

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil ____ - ____dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Sotsiologiya fani bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan imtihon dasturi professional ta'lim muassasalari hamda umumta'lim maktablarining dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

“Sotsiologiya” bo'yicha kasbiy (suhbat) imtihonlar abituriyentlarning sotsiologiya ta'lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

“Sotsiologiya” fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur dasturning asosiy vazifasi “Sotsiologiya” fanining predmeti, maqsad va vazifalari bo'yicha egallagan bilim va malakalarini baholash uchun tuzilgan. Mazkur dastur zamonaviy sotsiologiya doirasidagi bilimlarni shakllantirish va tahliliy ko'nikmalarni qaror toptirish, jamiyatning fundamental modellardan foydalanish va ijtimoiy voqealarni tahlil etish haqida bilim berish, zamonaviy ijtimoiy tahlil usullari va texnologiyalarni amaliy jarayonlarga qo'llash, ijtimoiy tadqiqot modellari o'rgatish, sotsiologik axborot yig'ish va ularni tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, sotsiologik tadqiqot texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi.

Imtihonda abituriyentlar, avvalo, “Sotsiologiya” fani bo'yicha egallagan bilim va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi va mantiqiy fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyentga “Sotsiologiya” fani bo'yicha 2026-2027 o'quv yili imtihon dasturi bo'yicha “Sotsiologiya” faniga quyidagi talablar qo'yiladi:

Sotsiologiyaga kirish fanining obykti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Jamiyat tushunchasi ma'no-mazmuni va tadqiqot uslublari, qonuniyatlari va kategoriyalari, turli xil talqinlari. Sotsiologiyaning jamiyat hayoti sohalari bilan aloqadorligi va unga ta'siri. Ijtimoiy fanlar tizimida sotsiologiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Sotsiologiyani fan sifatida shakllanishi. Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari. Sotsiologiya fanini o'rganishning ahamiyati. Jamiyat haqida ilk qarashlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Ogyust Kontning “ijtimoiy fizika” g'oyasi va sotsiologiyaga asos solinishi. Emil Dyurkgeymning ijtimoiy fakt va ijtimoiy hamjihatlik nazariyalari. Maks Veberning tushunuvchi sotsiologiyasi va ijtimoiy harakat nazariyasi Gerbert Spenserning ijtimoiy evolyutsiya g'oyasi. G'arb sotsiologik maktablarining shakllanishi va rivojlanishi. Zamonaviy davrdagi sotsiologik nazariyalar va konsepsiyalar. Struktur-funksionalizm, konflikt nazariyasi va simvolik interaksionizm yondashuvlari. Shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiylashuv nazariyalari. Ijtimoiy institutlar, ularning turlari va

vazifalari. Oila, ta'lim, din kabi institutlarning ijtimoiy ahamiyati. Ijtimoiy guruhlar, jamoalar va tashkilotlar sotsiologiyasi. Ijtimoiy stratifikatsiya, tengsizlik va mobillik masalalari. Deviant xulq-atvor va ijtimoiy nazorat muammolari. Madaniyat sotsiologiyasi, qadriyatlar va me'yorlar tizimi. Jamoatchilik fikri va ommaviy xulq-atvor sotsiologiyasi. Shahar va qishloq sotsiologiyasi, urbanizatsiya jarayonlari. Mehnat, yoshlar va gender sotsiologiyasi yo'nalishlari. Globallashuv va zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar. Sotsiologik tadqiqot metodologiyasi: so'rov, kuzatish, intervyu, hujjatlarni tahlil qilish usullari. Empirik sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish bosqichlari. Mustaqillik davrida O'zbekistonda sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida sotsiologik tadqiqotlarning ahamiyati va amaliy qo'llanilishi.

Imtihon natijalarini baholash mezonlari

Imtihon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'zida yoki o'zini namoyish etish shaklida baholanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Sotsiologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Sotsiologiya fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appellyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24-soat ichida appellyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appellyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

Z.Raxmonov

Sotsiologiya fanidan savollar

1. Sotsiologiya fanining predmeti, obykti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlardan (falsafa, tarix, siyosatshunoslik) nimasi bilan farq qiladi?
3. Ogyust Kontning sotsiologiya faniga qo'shgan hissasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Emil Dyurkgeymning "ijtimoiy fakt" tushunchasi nimani anglatadi?
5. Maks Veberning "tushunuvchi sotsiologiya" g'oyasi mohiyati nimadan iborat?
6. Gerbert Spenserning jamiyatni "ijtimoiy organism" sifatida tushunishi haqida gapirib bering.
7. Sotsializatsiya jarayoni deganda nimani tushunasiz va u qanday bosqichlardan iborat?
8. Oila ijtimoiy institut sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
9. Ijtimoiy status va ijtimoiy rol tushunchalari o'rtasidagi farq nimada?
10. Ijtimoiy stratifikatsiya nima va u qanday mezonlar asosida amalga oshiriladi?
11. Ijtimoiy mobillik turlarini (vertikal, gorizont) misollar bilan tushuntiring.
12. Ijtimoiy guruh va ijtimoiy jamoa tushunchalari o'rtasida qanday farq bor?
13. Birlamchi va ikkilamchi ijtimoiy guruhlar misollar keltiring.
14. Ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar jamiyat hayotida qanday rol o'ynaydi?
15. Deviant xulq-atvor nima va uning kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
16. Ijtimoiy nazorat mexanizmlari qanday shakllarda namoyon bo'ladi?
17. Madaniyat sotsiologiyasi nimani o'rganadi?
18. Submadaniyat va kontrmadaniyat tushunchalari nimani anglatadi?
19. Ijtimoiy institut tushunchasi va uning asosiy turlari haqida gapirib bering.
20. Ta'lim ijtimoiy institut sifatida jamiyatda qanday funksiyalarni bajaradi?
21. Din sotsiologiyasi qanday masalalarni o'rganadi?
22. Shaxsning ijtimoiylashuvida oila, maktab va ommaviy axborot vositalarining o'rni qanday?
23. Ijtimoiy o'zaro ta'sir (interaksiya) nima va uning asosiy shakllari qanday?
24. Simvolik interaksionizm nazariyasining mohiyati nimadan iborat?
25. Struktur-funksional yondashuv jamiyatni qanday tushuntiradi?
26. Konflikt nazariyasi jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni qanday izohlaydi?
27. Ijtimoiy o'zgarish va ijtimoiy taraqqiyot tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik qanday?
28. Globallashuv jarayoni jamiyat hayotiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

29. Urbanizatsiya nima va u ijtimoiy munosabatlarga qanday ta'sir qiladi?
30. Ommaviy xulq-atvor va ijtimoiy harakatlar (harakat) o'rtasidagi farq nimada?
31. Oila sotsiologiyasida nikoh va ajralish tendensiyalari qanday o'rganiladi?
32. Jinslar sotsiologiyasi (gender sotsiologiyasi) nimani tekshiradi?
33. Yoshlar sotsiologiyasi qanday muammolarni o'rganadi?
34. Mehnat sotsiologiyasi predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
35. Ijtimoiy tadqiqot metodlari (so'rov, kuzatish, intervyu) haqida qisqacha ma'lumot bering.
36. Anketa so'rovi o'tkazishning asosiy bosqichlarini sanab bering.
37. Ijtimoiy fikr (jamatchilik fikri) qanday shakllanadi va o'rganiladi?
38. O'zbekistonda sotsiologiya fanining rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
39. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning asosiy ko'rinishlari qanday?
40. "Do'stlar guruh" ham ijtimoiy guruh hisoblanadimi? Nima uchun?
41. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"ning ijtimoiy soha bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
42. Taraqqiyot strategiyasida aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha qanday ijtimoiy chora-tadbirlar nazarda tutilgan?
43. "Inson qadri uchun" g'oyasi taraqqiyot strategiyasida qanday ijtimoiy islohotlarda o'z aksini topgan?